

**ALEKSANDR FYNBERG LIRIKASIDA YOLG'IZLIK MOTIVINING BADIY
TALQINI**

Axmadova Muxsina Anvar qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

3-ingliz filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xaydarov Ilhom Tuxtayevich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3- ingliz fakulteti dekani

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynberg ijodida yolg'izlik motiviga badiiy tahlil nuqtayi nazaridan yondashiladi. Shoirning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari yo'g'rilgan yolg'izlik, sog'inch, ichonch kabi bir qancha mavzulardagi she'rlari orqali adabiy va badiiy tahlil qilinadi. Maqola yosh avlodga, xususan she'riyat ixlosmandlariga Faynberg ijodining rang-barangligi keng qamrovli talqinda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, she'riyat, badiiy adabiyot, yolg'izlik, ishonch tuyg'usi, sog'inch.

**THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE MOTIF OF LONELINESS IN
THE LYRICS OF ALEXANDER FAYNBERG**

Abstract: This article examines the creativity of Alexander Faynberg from the perspective of the artistic analysis of the motif of loneliness. Through the poet's inner experiences and emotional world, themes such as loneliness, longing and a sense of trust are revealed in his poems. The article provides a literary and artistic analysis of these and is intended for the younger generation, especially poetry lovers, presenting the richness of Faynberg's creativity in a broad artistic interpretation.

Key words: Alexander Faynberg, poetry, artistic literature, loneliness, sense of trust, longing.

**В ЛИРИКЕ АЛЕКСАНДР ФАЙНБЕРГ ХУДОЖЕСТВЕННОЕ
ОСМЫСЛЕНИЕ МОТИВА ОДИНОЧЕСТВА**

Аннотасия: В данной статье творчество Александр Файнберг рассматривается с точки зрения художественного анализа мотива одиночества. Через внутренние переживания поэта и его эмоциональный мир раскрываются такие темы, как одиночество, тоска и чувство доверия, отражённые в его стихах. Статья предлагает литературно-художественный анализ этих мотивов и направлена на молодое поколение, особенно на любителей поэзии, раскрывая многогранность творчества Файнберга в широком художественном контексте.

Ключевые слова: Александр Файнберг, поэзия, художественная литература, одиночество, чувство доверия, тоска.

Adabiyot- bu fikrlar sarchashmasi, chin qalbdan chiqadigan tuyg’ular simfoniyasi, uyg’unligi va insonning ko’ngliga huzur bag’ishlaydigan ajoyib bir soha. Bu nozik bir ko’ngil ishi ko’plab yozuvchi va adiblarning ijodlarida namoyon bo’ladi. Shulardan biri o’zbek va rus adibi nomiga sazovor bo’lgan va barchaning qalbiga manzur bo’lib, huzur baxsh eta olgan Aleksandr Faynbergdir. Adibning ijodi tom ma’noda juda ko’p mavzularni o’ziga qamrab oladi. Xususan, vatanparvarlik, insonparvarlik, tabiat, shaxsiy xotira, tinchlik va yolg’izlik. Albatta bu mavzular adibning lirikasida o’ziga xos tarzda yoritib berilgan. Ayniqsa, yolg’izlik, umidsizlik, hayot mazmunini anglash yetakshi mavzu sifatida namoyon bo’ladi. Fikrimizning isboti sifatida ushbu misralarni ko’rishimiz mumkin:

Meni deya chekma iztirob,
Yashayapman mag’rur, qaddi tik
Yelkam tutar sobit ishonchim,
Yorug’ kunlar qarshimda- tetik [3]

Shoir ushbu satrlar orqali o’z yaqin insoniga murojaatini izhor qilib, u uchun qayg’urmasligini, og’riqlarga, yolg’izliklarga qaramay mag’rur va matonat bilan yashayotganini aks ettiradi. Shoirni oldinga tomon yetaklayotgan kuch esa ishonch ekanligini va u hali yorug’ kunlar oldinda ekanligini qat’iy bir ishonch bilan tasvirlaydi.

Kengliklarda goh yomg’ir, shamol
O’rlar bo’m-bo’sh dala o’tinchi
Yuragimga bargsiz shoxlardan
Mo’ralaydi umid sog’inchi [3]

Mazkur satrlar orqali esa hayot yo’li kengliklarga o’xshatiladi: yomg’ir va shamolning bo’lishi esa hayotning past va balandliklarini, yaxshi va yomon kunlarini ifodalaydi. Bo’m-bo’sh dala orqali yolg’izlikni, bargsiz shoxlar esa qiyin va og’ir davrlarni aks ettiradi. Shunday og’ir va sinovli vaziyatda ham yurakka umid sog’inchi kirib kelishi esa o’zgacha bir mahoratdan dalolat beradi. Adibning ushbu satrlarining umumiy g’oyasi umid va ishonch bilan yashash haqida. Ya’ni hayotingizda har qanday holat bo’lishiga qaramay doimo ishonch va ezgu bir niyat bilan yashash kerakligi bosh g’oya sifatida har bir insonga go’zal bir ibrat bo’la oladi.

“ Odam davrni yaratgani kabi davr ham insonni shakllantiradi. Yaratiq yaratganning mevasi bo’lgani uchun ham unda yaratuvchining nuqsi qoladi. Ya’ni odam o’z davriga bir qadar o’xshaydi”[1;1]. Aleksandr Faynberg ijod qilgan davr ham bevosita she’rlarida o’z aksini topgan va o’sha davr muhiti har bir misralarida o’ziga xos bir ruhda talqin qilinadi.

Tushganda boshingga qayg’u,
Yolg’iz qolasan sho’rpeshona
Qalam bilan yozasan ushbu
G’am- qayg’udan qolmas nishona [3]

Shoir ushbu misralar orqali boshiga qayg’u tushib, yolg’iz qolganida o’zining ichki kechinmalarini, his-tuyg’ularni qalam ila yoritib, bor dardlaridan halos bo’lishini ta’kidlamoqda.

Quvonchni ham, qayg’uni ham qo’y,
Ortingga bir qarama-o’tgin

Neki bo'lgan bo'lsa unutgin

Xayolingda ro'yolarni suy.[3]

“ Olam hodisalari kabi odam tuyg'ulari ham tinimsiz o'zgarishlar og'ushida”[2;1]. Shoir yuqoridagi satrlar orqali o'tgan his-tuyg'ularga berilib ketmaslik kerak ekanligini ta'kidlaydi. O'tmishni o'ylab orqaga qarash esa rivojlanishga, o'sishga to'sqinlik qilishini, hayot davom etishi va faqat va faqat oldinga qarab intilishni, o'tmishda o'tgan barcha xatolarni unutib, kelajakka ishonch, shirin orzular bilan yashashga targ'ib qiladi.” She'riyat bilan orolangan uchqur xayol kishini yuksaltiradi. Soxta ko'tarinkilikdan xoli, samimiy bu satrlar salmoqli ijtimoiy yuk tashiydi”[1;2]

Aleksandr Faynberg ijodi bu teran mazmun va ichki kechinmalarining bir mahsulidir.Uning she'rlari har bir she'riyat ixlosmandlarining qalbidan munosib o'rin egallab, fikrlashga va chuqur badiiy tahlil qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qozoqboy Y. Inson tuyg'ularining teran talqinlari.- Toshkent; n.ziyouz.com.2004.
2. Qozoqboy.Y.O'zgarishlar doimiyligi (2012 yil she'riyati tahlili)- Toshkent;n.ziyouz.com.2013
3. Ziyouz.com sayti